

ABDUL KARIM ASH-SHAHRISTONIYNING (1076/1086- 1153-y) HAYOT YO’LI VA ILMIY FAOLIYATI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14549386>

JURAYEV Sherali Soibnazar o‘g‘li
TIFT universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix”
kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XI-XII asrlar oralig’ida yashagan Abdu al-Fatix Muhammad Abdul Karim ash-Shahristoniyning hayoti va ilmiy asarlari haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, bugungi kunda o’rganishga muhtoj bo’lgan asarlari ro’yxati keltirilib o’tilgan.

Kalit so’zlar: Ash-Shahristoniy, “Al-Milal wa an-Nihal”, aqliy va naqliy bilimlar.

ABSTRACT

This article provides brief information about the life and scientific works of Abd al-Fatih Muhammad Abdul Karim al-Shahristani, who lived between the 11th and 12th centuries, and a list of his works that are worth studying today.

Keywords: al-Shahristani, “Al-Milal wa al-Nihal”, intellectual and transmitted knowledge.

Abdu al-Fatix Muhammad Abdul Karim ash-Shahristoniy (1076/1086- 1153-y) keng ilmli musulmon olimi, ilohiyotshunos, ko’plab ilohiy va falsafiy bilimlar namoyondasidir. Ash-Shahristoniy yashagan davr saljuqiylar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi.

Ulug’ olim o‘z zamonasining mutakallimi, faylasufi bo‘lgan Abul Fath Muhammad ibn Abdul Karim ash-Shahristoniyning tug‘ilgan yili 467/1075 yoki 479/1076 yil deb ko‘rsatilgan¹. Ba’zi manbalarda esa, mutafakkirning Xurosonning shimolidagi Shahriston shahrida 469/1076 yilda tavallud topgani aytildi.² Shahriston xalifa Ma’mun davrida Xuroson amiri Abdulloh tomonidan barpo etilgan³. الملل والنحل (“Al-Milal wa-n-nihal”) asarining turkcha tarjimasida esa, mutafakkirning tavalludi haqida shunday deyiladi: “Abul Fath “Toj ad-din” yoki “Lison ad-din” unvonlari sohibi Muhammad ibn Abdul Karim ibn Ahmad o‘rta asr islom olamining mashhur olimlaridan biri bo‘lib, din, mazhab va falsafiy muarrix sifatida nom qozongan. U 469/1076 yili Xuroson shimolidagi Shahriston qishlog‘ida tavallud

¹ Tojiddin as-Subkiy. Tabaqot ash-Shofe’iyya al-Kubro. Bayrut. 1999. J.5.

² Al-Hasan Isnaviy. Tabaqot ash-Shofe’iyya. –Riyoz, Dorul-ulum, 1981, J.2. –B.106.

³ Abdul Karim ash-Shahristoniy. “al-Milal wa-n-nihal” Bayrut. 1995. J.1. –B.11.

topgan. Falsafiy-axloqiy va naqliy bilimlarni chuqur bilgani uchun unga “al-Afzal” unvoni berilgan”⁴.

Yoqut ibn Abdulloh Hamaviy ham uni Xuroson shimolidagi Shahriston⁵ shahrida tavallud topganini aytadi. Tabaqot ash-Shofe’iyya asarida esa, uning dunyoga kelishi 479/1087 sana deb ko‘rsatilgan⁶. Ibn San’oniydan uning tavalludi haqida so‘ralganda u Shahristoniy 479 yil tug‘ilib, 548 yilda vafot etgan deydi⁷.

“Al-Milal va-n-nihal” asarining “Shahristoniy kim?” mavzusi ostida berilgan ma’lumotlarda mutafakkirning tavallud sanasi to‘g‘risida bir necha ma’lumotlar keltiriladi⁸. Ulardan eng to‘g‘risi 479/1086 yil ekani ta’kidlanib o’tilgan⁹. Shuningdek, Shahristoniy 548/1153 yilda vafot etadi¹⁰. Ash-Shahristoniy yetmish yilga yaqin hayot kechirganini hisobga olsak, asarda ko‘rsatilgan sana to‘g‘ri bo‘lib chiqadi¹¹. Kelib chiqishi asli fors bo‘lgan Muhammad Nishopur va Gurganjdagagi o‘z davrining mashhur olimlaridan dars tinglab, an’anaviy musulmon ta’limotini oldi.

Mutafakkir tug‘ilgan yeriga nisbat berilib, “Shahristoniy” deb nom olgan. Bundan tashqari “Al-Afzal”, “Alomat”, “Toj al-milla va-d-din” taxalluslari ostida ham ijod qilgan va tanilgan¹².

Shofe’iy mazhabiga e’tiqod qilgan va Ash’ariy ta’limoti asosida ish yuritgan olim Abdul Karim ash-Shahristoniy ilk ta’limni Qur’oni karimni o‘rganish bilan boshlaydi va otasidan bu borada ko‘p narsalarni o‘rganadi. O‘z yurtida arab tili va adabiyoti, matematika va mantiq kabi ilmlarni turli ustozlar orqali o‘rganadi. Keyinchalik boshqa fanlarni o‘rganish uchun Xorazmga boradi. U yerda muhaddis Ali ibn Ahmad Madniy (vaf. 494/1100)dan hadis ilmini o‘rganadi va yana hadis ilmini Abul Hasan Ali ibn Ahmad al-Madaniy an-Naysoburiy (vaf. 497/1101)dan, kalom va fiqh ilmlari bo‘yicha esa, Abul Muzaffar al-Havoriy, Abul Qosim al-Fotimiylardan ta’lim oldi¹³.

Ilmiy izlanishlari:

Ash-Shahristoniy ko‘plab mutafakkirlardan ilm olgan va ularning ta’sirlarida ijod qilgan. Ular quyidagilar:

١ - أبو القاسم الأنصاري : أخذ عنه التفسير وعلم الكلام .

Abul Qosim al-Ansoriydan tafsir va kalom ilmidan saboq olgan.

⁴ Muhammed eş-Şehristanî. El-Milel ve’n-Nihal. İstanbul. 1998. (Çeviri: Mustafa Öz.).

⁵ Yoqut ibn Abdulloh Hamaviy. Mo’jam al-buldon. Bayrut. Dor al-fikr. J.3. –B. 337.

⁶ Muhammad Tanjiy. Shahristoniy. –Islam Ansiklopidisi. –İstanbul, 1971, J.11. –B.393.

⁷ Al-Isfara’iniy Abul Muzaffar. At-Tabsir fid-din va talmiyz al-firqa an-nadjyna ‘an al-firoq al-xoliqiyn. Misr. 1359/1940.

⁸ Ash-Shahristoniy. al-Milal va-n-nihal, Bayrut, 1995. J.1. –B.11. (Keyingi o‘rinlarda: al-Milal va-n-nihal)

⁹ al-Milal va-n-nihal. Bayrut. J.1. –B.11.

¹⁰ al-Milal va-n-nihal. Bayrut. J.1. –B.11.

¹¹ al-Milal va-n-nihal. Bayrut. J.1. –B.11.

¹² S.M.Muxtor. Musora’at al-falosifa muqaddimasi. –Misr. 1976. –B.25. (Keyingi o‘rinlarda: Musora’at al-falosifa).

¹³ Ibn Xalliqon. Vafiyyot al-a’yon. Bayrut, 1998.

2 - أبو الحسن المدینی : أخذ عنه الحديث .

Abu Xasan Madiyniydan hadis ilmidan saboq olgan.

3 - أبو المظفر الخوافی : أخذ عنه الفقه .

Abu Muzaffar al-Xavafiydan fiqh ilmidan ta’lim olgan.

4- أبو نصر القشيری : أخذ عنه الفقه والأصول وعلم الكلام .

Abu Nasr Qoshiyriydan fiqh, mantiq va kalom ilmlarini o’zida mujassam etgan.

15 yil davomida Xuroson, Xorazm va Bog’dodda bo’lgan. Mutafakkirning ilmiy sayohati to‘g‘risida turli xil fikrlar mavjud. Ba’zilar avval Xorazmga borgan, keyin Xurosonga o’tgan, deydilar¹⁴. Bu haqda Abu Muso al-Xorazmiy “Xorazm tarixi” asarida: “Abdul Karim Shahristoniy avval Xorazmga kelib, u yerda bir hovlida bir necha muddat yashaydi va so‘ngra Xurosonga o’tadi. Mutafakkir 510 hijriy sanada Xorazmdan ketadi va shu yili hajga boradi. So‘ngra Bag‘dodda uch yil qolib, u yerdagi oliy madrasalardan biri “Nizomiyya” madrasasida dars beradi. Keyinchalik o‘zinig yurti Shahristonga qaytadi va 549 hijriy sanada o‘sha yerda vafot etadi”¹⁵, deydi.

Aslida esa, ash-Shahristoniy avval Xorazm shahrida bir necha muddat yashagandan keyin Nishopurga boradi va u yerda Imom G‘azzoliyning talabalik davridagi do‘sti faqih, shofe’iy Ahmad Havofiy (vaf. 500/1106) va Abu Nasr Qushayriy (vaf. 514/1120)lardan fiqh bo‘yicha dars oladi. Keyinchalik Abu Nasr al-Ansoriy (vaf. 512/1118)dan kalom, jadal va islom falsafasini o‘rganadi. Shahristoniy o‘zining “Nihoyat al-iqdom” asarini ustoziga tuhfa tarzida bitgan¹⁶.

Shahristoniyning Nishopurda qancha vaqt yashagani manbalarda aniq keltirilmagan bo‘lsada, u ilminning eng yuqori nuqtasiga aynan o‘sha yerda yetishgani aytildi. Chunki, u Nishopurdalik paytida unga “Al-Afzal” unvonining ham berilgani buning tasdig‘idir.

Shahristoniy Nishopurdan ketgandan keyin, yana Xorazmda mashhur olimlar bilan tanishadi. Faqih Asad Muhayniy (vaf. 527/1133), fors tarixchisi Muhammad ibn Mahmud ibn Arslonlar bilan turli mavzularda munozaralar olib boradi.

Xorazmda bir muddat yashagandan keyin 510/1116 yilda haj qilish uchun Hijozga boradi. Hajdan qaytishda Asad Muhayniy vositasi bilan Bagdoddagi “Nizomiyya” madrasasida dars beradi va xalqqa va’z-irshodlar qiladi. Mutafakkirning jo‘shqinligi va notiqligini ko‘rgan xalqning ixlosi oshib, Shahristoniyning obro‘-e’tibor qozonishiga sabab bo‘ladi va u yerda uch yil yashaydi.

¹⁴ Muhammad Tanjiy. Shahristoniy. –Islam Ansiklopidisi. –Istanbul, 1971, J.11. –B.393.

¹⁵ Abu Muso al-Xorazmiy. Xorazm tarixi.

¹⁶ Abdulkarim ash-Shahristoniy. Nihoyatal-iqdom fi ilm al-kalom. Tad. Alfred Guilam. –London, 1934, -B.38.

“Kashf az-Zunun”da Shahristoniy ilm izlab juda ko‘p sayohat qilgani yoziladi. Xuroson, Xorazmning hamma joylarini aylanib chiqqan. U yerlarda xalifalikning turli mintaqalaridan kelgan olimlar bilan bahs-munozaralar olib borib, shuhrat qozongan.

Shahristoniy Bag‘dodda uch yil yashagach Xurosonga qaytadi va saljuqiylar sultoni Sanjarning vaziri Abul Qosim Muhammad ibn al-Muzaffarning xizmatiga bel bog‘laydi¹⁷. Mutafakkirning “Al-Milal va-n-nihal” asari o‘sha yerda sulton vaziriga tuhfa tarzida yozilgani tarixiy manbalardan ma’lum¹⁸.

Shahristoniy keyinchalik Termiz shahriga borib, u yerda o‘z davrining mashhur olimlari Naqib al-Ashraf Abul Qosim Ali Ibn Ja’far Al-Musaviy (vaf. 550/1155)ning xizmatida bo‘ladi va Xurosonda yozgan “Al-Milal va-n-nihal” asarining bir nusxasini unga taqdim etadi. Shahristoniy Termiz shahrida qancha bo‘lgani ma’lum emas. Mutafakkir o‘zining “Al-Musora’a” asarini Termiz shahrida yozgani manbalarda keltiriladi¹⁹.

Mutafakkirning vafoti haqidagi ma’lumotlar uning hayotining oxirgi yillarini Shahristonda o‘tkazganini ko‘rsatadi. Shogirdi as-Sam’oniy uning 548/1153 yilda Shahristonda vafot etganini aytadi. Manbalarda Shahristoniyning uylangan yoki uylanmagani yoki farzandlari haqida hech qanday ma’lumot yo‘q²⁰.

Ahli sunna aqidasida falsafiy tushunchalarning ilk tortishuvlari imom Ash’ariy (vaf.324/936) tomonidan boshlangan. U falsafadan mo‘tazila ta’limotining dalillarini inkor etishda foydalangan. Shu doirada Imom G‘azzoliy (vaf. 105-1111) ham falsafadan faylasuflarni tanqid qilishda foydalangan.²¹

Kalom ilmi maktabining asoschilar – Imom Ash’ariy, Imom Moturidiy va Imom G‘azzoliydan keyin bu maktabni jiddiy ravishda ta’qib qilganlardan biri Abdul Karim ash-Shahristoniy hisoblanadi²².

Shahristoniy islom olamida mashhur olimlardan biri hisoblanib, dinlar tarixi, falsafa, kalom va adabiyot sohalarida ko‘plab asarlar bitgan²³.

Shahristoniy o‘zini ahli sunna ekanini asarlarining bir necha o‘rinlarida keltirilib o‘tib, Abul Hasan Ash’ariyni ustozimiz, deb e’tirof etgan.²⁴ Lekin Shahristoniyning ba’zi fikrlari Shi’a va Ismoiliyalarni qo’llab quvvatlagan, deganlar ham bor. Bunday qarashlar uning hech qaysi asarida uchramaydi va yuqoridagi fikrlar unga nisbatan tuhmatdir.

¹⁷ Ibn Xalliqon. Vafiyyot al-a’yon. Qohira. Maktaba an-Nahda al-Misriyya, 1948. J.1. –B.272.

¹⁸ O‘sha asar, -B.272.

¹⁹ Yusuf Z. Yorukan. Shahristoniy. –Istanbul, -B.272.

²⁰ Bayroqdur Mehmet. Islom falsafasiga kirish. –Anqara, 1992. –B.132, 212. (Keyingi o‘rinlarda: Islom falsafasiga kirish).

²¹ Islom falsafasiga kirish. –Anqara, 1992. –B.132, 212.

²² Ismoil H. Izmirli. Islomda falsafiy oqimlar. –Istanbul. 1995. –B.213.

²³ Sharofiddin Golchuk. Kalom tarixi. –Ko’nya, 1996. –B. 111.

²⁴ Abdulkarim ash-Shahristoniy. Nihoyat al-iqdom. –B.11-72

Shahristoniyning falsafiy atamalarni qo‘llashdagi uslubi barcha olimlarga ma’qul kelgan. Mutafakkir o‘z fikrlarini o‘rtaga tashlashdan oldin ularning tahliliy jihatlariga chuqur yondashgan.

Imom Ash’ariy bilan boshlangan kalom ilmi tortishuvlari Imom G‘azzoliy davrida falsafiy bo‘y ko‘rsatdi. Shahristoniy ham o‘zidan oldingi olimlarning yo‘lidan borib, faylasuflarni qattiq tanqid qilgan va ahli sunna val jamoa to‘g‘risida o‘z fikrlarini bayon qilgan. Shahristoniy Ibn Sinoning fikrlarini qo‘llab-quvvatlamaganini manbalarda uchratish mumkin²⁵. Bu joyda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan jihat shundan iboratki, Shahristoniy Ibn Sino orqali barcha faylasuflarni tanqid qilishga yo‘l topgan.

- شبهات أرسطو وبرقلس وابن سينا : كتاب في الرد على الفلاسفة -

Uning zamondoshlari faylasuflar va botiniy-ismoiliylar dalillariga tarafdirlikda ayblaganlar. U ashaddiy munaqqidlar orasida ham mashhur bo‘lgan. Zamondoshlari uning o‘qimishli va bilimdonligini qayd qilish bilan birga, uni o‘z ma’ruzalarida hech qachon Qur’onga va rivoyatlarga asoslanmagan deganlar. Uning Qur’on mazmunini falsafiy jihatdan tahlil qilishga urinishini qoralaganlar²⁶.

Shahristoniyning diniy-siyosiy qarashlarining bir o‘qishda anglash qiyin. Bir tomonidan u ash’ariy mutakallimlari sifatida namoyon bo‘ladi²⁷. Chunki, u al-Ash’ariyning beshinchi tabaqasiga oid bo‘lgan shogirdi sifatida keltirilgan²⁸. U ash’ariyya oqimining mufassal bilimini o‘zining "نهاية الإقدام في علم الكلام" ("Kitob nihoyat al-iqdom fi ilm al-kalom") asarida ko‘rsatib berdi²⁹.

Shahristoniyning shogirdi as-Sam’oniyning ma’limotiga qaraganda, uning ustozlari “Tog‘dagi qal’a odamlari”ga tarafdirlikda (ahl al-qal’a) hamda odamlarni ismoiliy-nizoriy oqimiga jalb qilishda ayplashgan.

M.Jaloliy va M.T. Donish Pajux o‘z tadqiqotlarida Xorazm olimlarining fors tilidagi asarlarini o‘qib chiqqach, Shahristoniyni “shubhali ismoiliydir”, deya e’tirof etadilar. M.Jaloliy Shahristoniyning Qur’onga yozgan, qisman saqlanib qolgan izohlarida ismoiliylarga xos xarakterni ko‘rsatib o‘tadi. Qur’onga yozilgan “Sharh mafotih al-asror va masobiq al-abror” (Sirlar kaliti va yaxshilar sharhi) nomi ostida (tax. 540)gi sharh ta’lif etilgan edi. Umrining oxirida Shahristoniy aftidan o‘zining ismoiliy qarashlarini ochiq ifoda etgan bo‘lsa kerak³⁰. Shahristoniyning ismoiliycha qarashlari u tomonidan Ibn Sinoga raddiya tarzida yozilgan “Kitob al-musora’a” nomli asarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Asar Termiz shahri noyibi Alaviylardan biri

²⁵ Hilmiy Z. Ulkan. Ibn Sino falsafasi. –Anqara, 1995, J.4. –B.83.

²⁶ Прозова О.М. Книга о религия и сектах. Ж.1. Москва 1984. стр.19-20..

²⁷ Zahabiyy Shamsiddin. Siyari a’lom an-nubalo. Bayrut, 1417/1997. J.15. –B.86.

²⁸ Tojiddin as-Subkiy. Tabaqot ash-Shofe’iy al-Kubro. Bayrut, 1999. –B.21.

²⁹ Книга о религиях и сектах. Ж.1. Москва 1984. стр.20.

³⁰ Б.Б.Бартолд. Ислам. Москва. 1966. Ж.6. –Б.627.

bo‘lgan Abul Qosim al-Musaviyga bag‘ishlangan bo‘lib, taxminan 526/1132 yillardan keyin yozilgan edi³¹.

Ibn Sinoni ilg‘or faylasuflardan deb tan olgan Shahristoniy falsafiy mubohasa uchun metafizikaga oid yettita savol tanlab unga raddiya berishga jazm qiladi. U o‘z asarlarida Ibn Sino haqida fikr bildirgan³².

Bu borliqning anglanishi va tasnifi, Xudoning borligi va birligi, dunyoning abadiy emasligi va ruhiy olamni boshqarish tamoyilidir. Shahristoniy har bir savolga Ibn Sinoning fikrini keltiradi va unga raddiya beradi. O‘z mulohazalarini bayon qiladi. Shahristoniyning aytishicha, nomoddiy borliqning zohir bo‘lish mohiyati manbalarda mavjud bo‘lgan “Mukammal so‘z” (al-kalima at-tamoma)dir³³.

Ko‘proq oxirgi shi‘a’lar, shu jumladan, ismoiliylar tomonidan muntazam ishlatilayotgan “taqiya” (e’tiqodni yashirish) tamoyiliga Shahristoniyning munosabatini shu tarzda baholash mumkin. U o’sha davrdagi taqiya haqidagi “uni so‘zda ham, amalda ham” noma’qul (qilib bo‘lmaydigan) degan fikrlarini bid’at, deb hisoblaydi. Ismoiliylar hayotini qayd etib turib, ularning bilimini muvofiqlashtirgan Shahirstoniy ta’kidlashicha, ularda hamma vaqt, hamma tillarda targ‘ibot va g‘oyalarni tarqatish mavjud bo‘lganidan, chamasi ushbu e’tirof zamirida nafaqat “aqli va zehnli forslar”ning betakrorligi, balki uning ismoiliylarga xayrixohligi yotibdi³⁴.

Mazkur munosabatga nisbatan xorazmliklarning o‘ziga yarasha mulohazalari bor. Unga ko‘ra, Shahristoniyni yaxshi biladigan xorazmliklar: “Agar uning e’tiqodida adashish va bu toifalarga xayrixohligi bo‘lmanida edi u Xorazmda imom bo‘lgan bo‘lar edi”, deyishadi³⁵.

Yuqorida e’tirof etilgan barcha gaplar bizning nazarimizda Shahristoniy dunyoqarashida ismoiliya g‘oyalarining aks ettirilishiga yetarlicha asos bo‘la oladi. Lekin asosli dalillar keltirish evaziga uni shofe’iy-ash’ariy sifatida tan oladigan omillar ham yo‘q emas. Tojiddin as-Subkiy uni shofe’iylikning besh tabaqasi ilohiyotchilari sifatida keltirgan. Shogirdi Sam’oniy ham ash’ariy ilohiyotchisi sifatida faoliyat olib borganini aytib o‘tadi.

“Al-Milal va-n-nihal” asarida ham ismoiliylarga yon bosish hollari kuzatilmadi. Ta’limotlarning bir-biridan farqi, oralaridagi aloqlalarini mo‘tadil bayon etadi³⁶.

³¹ Книга о религиях и сектах. Ж.1. Москва 1984. стр.21.

³² Книга о религиях и сектах. Ж.1. Москва 1984. стр.21.

³³ Книга о религиях и сектах. Ж.1. Москва 1984. стр.21.

³⁴ Книга о религиях и сектах. Ж.1. Москва 1984. стр.21

³⁵ Книга о религиях и сектах. Ж.1. Москва 1984. стр.21.

³⁶ Qarang: Siyari a’lom an-nubalo. J. 15. –B. 86-87; Tarixi hukamo al-islom. –B. 141-144; Tabaqoti ibn Saloh. –B.14.; Kashf az-zunun. –B. 58-291.

Shahristoniy Ibn Sinoni tanqid qilar ekan, ilohiyotshunos sifatidagi kalom ilmining juda nozik jihatlariga ham e’tibor bergan. Uning fikrlari Imom G’azzoliyning fikrlari bilan bir xil bo’lgan. Shahristoniyning asarlarini shartli ravishda uch qismga bo’lish mumkin: Qo’lyozma, nashr qilinmagan va yo’qolib ketgan asarlar.

1. Qo’lyozma asarlari:

1. Qozi Umar ibn Sahlga yuborilgan Ibn Sinoning qarashlariga Shahristoniyning etirozlarini o’zida jamlagan risola.

2 .Kitob ilm al-ilohiy. Mutafakkirning bu asari Muhammad Iyloqiy uchun yozilgan. Bu asarda Muhammad Iyloqiyning metafizika (Metafizika-yunoncha meta phusica-fizikadan keyin) dunyoni mohiyati yoki har qanday borliqning birlamchi asoslari to‘g‘risidagi falsafiy ta’limot. “Phusica”ning tarjimasi “tabiat”dir) mavzulariga oid savollariga javob yozgan.

3. Muhammad Sahloniyga atab yozgan risolasi. Ash-Shahristoniyning bu asarining nomi manbalarda berilmagan, faqat Muhammad Sahloniyga atab yozilgani ma’lum.

4. Kitob qissatu sayyidina Yusuf [a.s.].

5. Kitob mafotih al-asror va masobih al-abror.

6. Kitob manojih fi ilm al-kalom.

7. Kitob al-manojih al-bayyinot.

3. Yo’qolib ketgan yoki bizgacha yetib kelmagan asarlari:³⁷

1. Kitob al-irshod ila aqoid al-ibod (Bandalarni aqidalarga chorlovchi kitob).

2. Kitob asror al-ibodot. (Ibodatlarning sirlari kitobi).

3. Kitob al-aqtor fil usul (Usuldagagi qatralar kitobi).

4. Kitob tarix al-hukamo (yoki falosifa) (Hukimlar (falsafalar) tarixi kitobi).

5. Kitob talxis al-aqsom li mazahib al-anom.

6. Kitob daqoiq al-ahvom (Nozik tushunchalar kitobi).

7. Risola fi mabda va ma’od.

8. Kitob shubuhot Aristotel va Ibn Sino (Arestotel va Ibn Sino shubhalari).

9. Kitob ash-Shajar al-ilohiya (Ilolah shajara haqida kitob).

10. Kitob al-Uyun val-anhor (Buloqlar va daryolar haqida kitob).

11. Kitob g‘oyat al-marom fi ilm al-kalom (Kalom ilmida xohish chegarasi kitobi). Bu asar ham yo‘q bo‘lib ketgan. Bu asarning boshqa nomi “Kitob nihoyat al-aqdom fi ilm al-irshod ala aqoid al-ibod).

12. Kitob qissatu sayyidina Muso va Hizr.

13. Kitob majlis fi usul al-hikma.

³⁷ Musora’at al-falosifa. –Misr, 1976. –B. 21-22.

14. Kitob majlis fi hasr va anvo‘ at-taqaddumot.
15. Kitob majlis fi qissati sayyidino Muso.
16. Kitob manozirot ma’al islomiyat.
17. Kitob nihoyat ahvom al-hukamo al-ilohiyyun.
18. Kitob al-juz allazi la tatajazza’u.
19. Kitob sharh surati Yusuf.